



O'ZBEKISTON
FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI



CHDPU
CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



CHIRCHIQ SHAHAR HOKIMLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari

2025-yil 29-30-may

Chirchiq - 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
GUMANITAR FANLAR FAKULTETI
TARIX KAFEDRASI**

TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 29-30-may

Chirchiq– 2025

Toshkent vohasi tarixiga doir zamonaviy tadqiqotlar. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami, II Tom. – Toshkent: «Zebo print», 2025. 305 b.

Mas'ul muharrir:

G.Muxamadiyev – kimyo fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

R.A.Ikramov - yuridik fanlar doktori, professor

Y.X.Gaffarov - tarix fanari nomzodi, professor

D.B.Axmadjanov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

O.M.Normatov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

Sh.B.Jumayeva - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

O.H.Jaynarov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

I.S.Joldasov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

S.Toshev – katta o'qituvchi

Ushbu to'plamda Qadimgi va o'rta asrlarda Toshkent vohasi, XIX – XX asrlarda Toshkent vohasi: zamonaviy tadqiqotlar va yondashuvlar, mustaqillik yillarida Toshkentning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot tarixi, Toshkent vohasi arxeologiyasi va etnologiyasi bo'yicha tadqiqotlar va ularning yo'nalishlari, Chirchiq shahri tarixi, buguni va istiqbollari, O'zbekiston tarixining dolzarb masalalariga bag'ishlangan ilmiy maqola va tezislari o'rin olgan. Konferensiya materiallaridan tarixchilar, ijtimoiy- soha mutaxassislari, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, talabalar, professor- o'qituvchilar hamda barcha qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

© Chirchiq davlat universiteti, 2025.

© «Zebo print» nashriyoti, 2025.

SO‘Z BOSHI

Toshkent vohasi - o‘zining qadimiy va boy tarixiy merosi, betakror tabiiy- iqlimiy sharoitlari, madaniy xilma - xilligi va strategik geografik joylashuvi bilan nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi rivojida alohida o‘rin egallagan mintaqalardan biri hisoblanadi.

Hududning tabiiy resurslarga boyligi, unumdor yerlar, serhosil vodiysi, tog‘ etaklaridagi muhofazali hududlar, shuningdek, o‘ziga xos flora va fauna tizimi qadimdan voha aholisi hayot tarzining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Bu yerda asrlar davomida chorvachilik va dehqonchilik bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat uyg‘unlashib borar, ijtimoiy- iqtisodiy tizim o‘ziga xos shaklga ega bo‘lgan.

Toshkent vohasi - tarixiy jarayonlar chorrahasida joylashgan bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘lining muhim nuqtalaridan biri sifatida qadimdan savdo, madaniyat va siyosiy aloqalarning markazi bo‘lib xizmat qilgan. Bu voha orqali o‘tgan karvon yo‘llari Sharq va G‘arb o‘rtasida nafaqat tovarlar almashinuvi, balki g‘oyalar, dinlar, texnologiyalar va ilm- fan rivoji uchun ham zamin yaratgan. Hududda joylashgan qadimiy shaharlar, qo‘rg‘onlar, me’moriy yodgorliklar va arxeologik topilmalar bugungi kunda nafaqat milliy, balki jahon tarixchiligining e’tibor markazida turibdi. Toshkent vohasi tarixini o‘rganish - o‘z navbatida, butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyaviy taraqqiyotini chuqur anglash uchun mustahkam ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bois, Toshkent vohasi faqat tarixiy o‘tmish nuqtai nazaridan emas, balki bugungi kunda ham ilmiy izlanishlar, arxeologik tadqiqotlar va madaniy merosni saqlab qolish sohasida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi konferensiyamizning asosiy maqsadi - Toshkent viloyati tarixini ilmiy asosda chuqur tadqiq etish, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan izlanishlar va ularning natijalarini muhokama qilish hamda istiqboldagi ilmiy yo‘nalishlar va vazifalarni belgilab olishdan iborat. Shu munosabat bilan biz, tarix sohasida izlanish olib borayotgan yetuk olimlar va yosh tadqiqotchilarni ushbu anjumanga taklif etdik.

Mazkur anjuman tarix fanining nazariy va amaliy jihatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. U zamonaviy ilmiy metodologiyalar asosida olib borilayotgan tadqiqotlar, innovatsion yondashuvlar va xalqaro ilmiy hamkorlikning istiqbolli yo‘nalishlarini muhokama qilish uchun qulay maydon yaratadi.

Shu o‘rinda, ushbu konferensiyaning tashkiliy ishlarida faol ishtirok etgan barcha professor- o‘qituvchilarga, talabalarga, hamkor tashkilotlarga

chuqur minnatdorchilik bildiraman. Sizlarning fidokorona mehnatingiz tufayli ushbu tadbirni yuqori saviyada o'tkazishga erishmoqdamiz.

Barchangizga ilmiy izlanishlaringizda ulkan zafarlar tilayman va bugungi konferensiya mazmunli, samarali hamda ilhomlantiruvchi bo'lishiga ishonch bildiraman..

Chirchiq davlat pedagogika universiteti rektori, kimyo fanlari doktori, professor G.I.Muxamedov

SOHIBQIRON AMIR TEMURNING HARBIY FAOLIYATIDAGI TUTGAN O'RN

Ashurova Shaxzoda Bekzod qizi,

CHirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi

Amir Temur 1336-yilda Shahrisabzga yaqin Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilgan. Uning otasi Amir Tarag'ay Qozon xoniga tobe (Kesh hozirgi Shahrisabz) hokimi bulgan. Yosh Temurning dastlabki savodi oilada chiqarilgan va 7 yoshidan madrasada uqiy boshlagan. Bu haqida u uzining "Tarjimai holi"da shunday yozgan: «Etti yoshga tulganimda meni madrasaga olib borishdi va qushimcha suzlar jadvalini berishdi. Men uqiy boshladim va erishgan muvaffaqiyatlarimdan behad xursand buldim». Tadqiqotchi olim B. Ahmedovning ta'kidlashicha, Temur madrasaga kelganda harf taniydigan bulgan. Shuning uchun ham jadvaldagi suzlarni uqiy bilgan. Movarounnaxr va Xuroson madrasalaridagi odat buyicha bolani uqishga urgatishda qog'oz yo teriga yozilgan eng oson suzlar jadvalidan foydalanilgan. Temur xam bolaligida shunday jadvalni uqigan. Amir Temur bolalik va usmirlik yillari xaqida shunday xotirlaydi: "Men 9 yoshga tulganimda namoz uqiy boshladim va madrasadagi barcha talabalardan ustun bulib oldim. har qanday yig'ilishlarda ham men ulamolarning yonidan joy olishga xarakat qilardim. Lekin har doim ularning oldida tiz chukib utirar edim. Kattalarga shu tarzda xurmat bildirishni men uzimga qoida qilib olgandim. 12 yoshimdan bolalar bilan uynashni urgandim va vaqtimni uz tengqurlarim hamda uspirinlar bilan utkazardim". Bu parchada shunisi diqqatga sazovorki, Temur bolaligidayoq tengqurlaridan ustun bulib, unda amirlikka intilish bulgan. Temurning tarjimai holida uning fe'l-atvori, axloqi va ijobiy xususiyatlarining shakllanishidan dalolat beruvchi ma'lumotlar alohida ifodalangan. Amir Temur shaxsida anchagina ziddiyatlar mavjud. U 16 yoshida otasining vasiyati buyicha askarlarga boshchilik qilgan. Shunday qilish Barlos urug'ining an'anasi hisoblangan. U yoshligidan harbiy mashqlarga nihoyatda qiziqqan, feodal urushlarda bir necha bor qatnashib, tajriba orttirgan va mohir jangchi bulib etishgan. Amir Temur 1360-1361 yillarda Movaraunnaxrning katta qismni egallagan Mug'uliston xoni Tug'li Temur xizmatiga kirganida, shuningdek, uning ug'li Ilyos Xo'ja 1365 yili hukmronligiga qarshi uzluksiz kurashgan. Husayn va Temur 1366 yilning bahorida Samarqandni egallaydilar. Husaynning xoinlik kirdikorlarini. sezib yurgan Temur 1370 yilda Balxni qamal qilish paytida uz itdifoqchisi Huttalion hokimi Kayxusrav quli bilan uni

uz yulidan olib tashlaydi. Usha paytdan Amir Temurning Movorounnaxrdagi yakka hukmdorlik faoliyati boshlanadi. Bu esa uning 35 yil mobaynidagi hukmronlik na jahongirlik harbiy yurishlari uchun qulay vaziyatni vujudga keltirgan. Amir Temur qisqa muddat ichida Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'idagi erlarni, Farg'ona va Shosh mulklarini birlashtirgan va uziga buysundirgan. 1372 yildan 1388 yilga qadar Xorazmni tu'la buysundirish uchun 5 marta yurish qilib, uni uz imperiyasiga qushib olgan. 1395 yilda Shimoliy Kavkazga yurish qilib, g'alaba qozongan. 1398 yili Hindistonni, 1401 yili Suriya yerlarini, 1402 yili Anqaradagi turk erlarini bosib olgan. Sulton Boyazidni engach, Xitoyga yurish oldidan Utror shahri yaqinida xastalanib, 1405 yil 18 fevral kuni vafot etgan.[1].

Amir Temur va uning avlodlari harbiy yurishlarga ko'proq kuklam, yoz va kuz mavsumlarida otlanishni ma'qul bilganlar. Safar qoidasiga ko'ra, har bir sarkarda o'z darajasi va lavozimiga qarab qism va bo'linmalari bilan yasol — jangovar tartibda harakat qilgan. Yasolni buzgan shaxs qattiq jazolangan. Qo'shin janggohga tushganda lashkargoh atrofi aravalar bilan to'silgan, xandaqdar bilan ihota qilingan, soqchi bo'linmalar tomonidan qo'riqlab turilgan. Yurish yoki jang paytida boshboshdoqlik, parokandalikni oldini olish maqsadida har bir bo'linma, guruh, kismning o'z paroli — o'ron belgilangan. Armiya safar chog'ida quyidagi jangovar tartibda harakat qilgan: Bosh kuchlardan ancha oldinda qaravul (avanpost), undan keyin mang'lay (hiravul)(avangard), barang'ar, juvang'ar, qo'l(markaz), chag'davul (aryergard) yurgan. Qo'shin ketidan peshmapesh kelgan. Oliy bosh qo'mondon jang maydonini tanlashga alohida diqqat qaratgan. Janggohning tekis, keng va qo'shin qismlarini joylashtirishga qulay bo'lishi talab qilingan. Jang maydonining suvga yaqin bo'lishi hamda jang vaqtida kuyosh nurining askarlar ko'ziga tushmasligi maqsadga molik hisoblangan. Yirik muhorabalar paytida dastasi uchiga yarim oy shakli qadalgan jangovar bayroq va tug'lar bilan bezatilgan oliy qo'mondon borgohi balandlikka o'rnatilgan. U yerdan jangning borishi kuzatilib turilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temurning 12 ming kishilik qo'shini jangga mana bunday tartibda kirgan. Dushman bilan dastlabki to'qnashuvni ayg'oqchilik bilan mashg'ul bo'lgan qaravul boshlab bergan. Shundan so'ng o'ng va chap qanot ilg'or qismlari — barang'ar xiravuli va juvang'ar hiravuli madadida asosiy ilg'or qism — mang'lay jangga kirgan. Mang'lay ortidan barang'ar hamda juvang'arning qolgan 2 bo'lagi — chapavul va shag'avul ketma-ket harakatga kelgan. Ushbu kuchlar dushmanni Mag'lub etishga kifoya qilmasa, bosh qo'mondon (amir ulumaro) boshchiligidagi markaz (qo'l)(g'o'l) hal qiluvchi hujumga

tashlangan: vdravul, qaravul, manglay (xuravul). Sohibkiron armiyasi qatnashgan ulkan janglarning taktik borish manzarasi quyidagicha bo'lgan: qo'shin markazi 40 bo'luk — polika taqsimlangan va Oliy bosh qo'mondonga itoat qilgan. Ushbu bo'luklarning sara jangchilardan tashkil topgan 12 bo'luki safning 1-qatorida, qolgan 28 bo'luki 2 va 3-qatorlarda joylashgan. Qirq bo'lukning o'ng tarafi oldida amirzodalar qismlari, so'l tarafi oldida qarindoshlar va itshfoqchilar qismlari saf tortgan. 2-qatorning barang'arida 6 bo'luk o'z ilg'ori — hiravul bilan o'rin egallagan. Ayni shu miqsordagi bo'luk va hiravulga juvanger ham ega bo'lgan. 2-qator barang'ari va juvangeri oldida yuqoridagi tartibda 1-qator qismlari joylashgan. Uning oldida bosh ilg'or mang'lay (yoki hiravuli buzurg) harakatda bo'lgan. Yengil suvoriylardan iborat 2 bo'luk armiyani qo'qqisdan bo'ladigan hamladan muhofaza qilish, dushman kuchlari harakatini kuzatish bilan band bo'lgan[2]

Sohibqiron Amir Temur murakkab shaxsdir. Uning xislatlaridan biri shuki, u biror masalani xal etishdan oldin shu sohaning bilimdon olimlari bilan maslahatlashar, so'ngra aniq va qat'iy qaror qabul qilar edi. Uning olim-u fuzaloalr bilan o'tkazadigan anjumanlari har xil mezonda va turli shakllarda bo'lgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, ko'pincha Amir Temur tibbiyot, matematika, astronomiya, tarix, adabiyot va tilshunoslik ilm namoyandalari, shuningdek ilohiyat va din sohasidagi mashhur kishilar bilan shaxsiy suhbatlar o'tkazardi. Bu suhbatlarda hayotning muhim masalalari to'g'risida, Movorunnahr va Xorazmdan tashqari, Oltin O'rda, Oq O'rda, Xuroson, Hindiston, Eron, Iroq, Turkiya shuningdek butun mag'ribni o'z ichiga olgan saltanatga oid ishlar haqida gap boradi. Amir Temur saroyida ko'plab ilm-ma'rifat kishilari hukumdorning marhamatidan bahramand bo'lib xizmat qilardi. Chunonchi Mavlano Abdujabbor Xorazimiy, Mavlano Shamsuddin Munshi, Mavlano Abdullo Lison, Malano Badriddin Ahmad, Mavlano No'moniddin Xorazimiy, Xo'ja Afzal, Mavlano Alouddin Koshiy, Jalol Hokiylar shular jumlasidandir. Amir Temur ilm-fanning riyoziyot, handasa, me'morchilik, falakkiyot, adabiyot, tarix, musiqa kabi sohalarning ravnaqiga katta e'tibor beradi. U ayniqsa sohib hunar ustalar bilan jon dildan suhbatlashardi. Bu haqida Lyangle

shunday yozadi: Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko'rgan kishilarga ishonch bildiradi. Temur davrida ko'chalari qaytib qurilib, bozorlar obod etildi. Klavixov yozadi: „Samarqand shahrida har yili Xitoy, Hindiston, Tatariston va boshqa mamlakatlardan, shuningdek nihoyatda boy Samarqand saltanatining o'zidan keltirilgan molar sotilardi. Shaharga olib kelingan mollar bir yerda tartib bilan joylashtirib

sotadigan joy yo‘q edi. Tarixiy qisqa fursatda qudratli saltanatga aylangan” Temur davlati va uning hukumdori zamondoshlarining e’tiborini o‘ziga jalb etibgina qolmay, balki Yevroosiyo mamlakatlarida yuz berayotgan barcha voqealarga ham ta’sir ko‘rsatdi. Bu Temurning G‘arbga tomon „yeti yillik“ yurishlari davri (1398- 1404 yil) gacha qudratli Usmonli turklar imperiyasiga qarshi urush boshlashga qadar yaqqol namoyon bo‘lgan edi. XIV- asr oxiri – XV- asr boshlarida

Yaqin Sharqda murakkab siyosiy vaziyat vujudga keldi. Bu vaqtda bir tomondan harbiy qudrati tobora ortib borayotgan Turkiyaning Bolqon yarim oroli davlatlariga nisbatan tahdidi kuchayib, butun Yevropani xavf ostiga solayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bu qudratli davlatning o‘zi G‘arbga tamon shiddat bilan bostirib kelayotgan xavfli raqibi- Trabzon va Kanistantipolning harbiy kemalaridan foydalanishga harakat qiladi. Shu maqsadda u Genuya va Venetsiyaga sovg‘a salomlar va maktublar bilan Vatikan vakili arxiyepiskop Ioan Galonifotibus boshchiligida elchilar yuboradi. O‘zaro yordam masalasida Temur Kanistantinopol imperatorining noibi Ioann VII Paleolog bilan yozishmalar ham olib boradi. Temurning 1402-yil 15-may kuni Ioann VII Paleolog nomiga yo‘llagan xatning mazmuniga qaraganda, Kanistantinopol imperatori va Genuyaning Peradagi hokimi Boyazidga qarshi kurashishda Temurga xizmat qilish, hatto unga odamlar va har qaysisi 20 tadan 40 harbiy kema bilan“ yordam berish majburiyatini o‘z zimmalriga oladilar. Buni Ispaniya elchisi Klavixo ham o‘z kundalik daftarida qayd etganligi haqida ma’lumot mavjud. Temur bu davrda Fransiya qiroli Karl VI (1380-1422), Angliya qiroli Genrix IV (1399-1413) hamda Kastiliya va Leon qiroli Genrix III de Trastamara (1390-1407) lar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatib, yozishmalar olib boradi. Bu davlatlar orasida ayniqsa Fransiya Vizantiya imperiyasi taqdiriga befarq qaray olmas edi. Shu boisdan Fransiya fuqarolari hisoblangan genuyaliklarning yer va mulklarini, ayniqsa G‘alatiyadagi mustamlakalarini himoya qilish uchun Karl VI o‘z navbatida Temurdan madad kutar va u bilan diplomatik aloqalar o‘rnatishga intilar edi[5]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J.Yaxshilikov. Sh.Axadov. Temuriylar ma’naviyati. Toshkent. 1999-yil.
2. O‘zbekiston Xalqlari Tarixi. Toshkent. 1992-yil.
3. Qomuslar bosh tahririyati. „Temur va Temuriylar saltanati“. T.: 1994 y. 6-7 b

4. 2. Amir Temur. "Temur Tuzuklari". "Buyuk davlatchilik silsilasi"turkumi – T. 2020.
5. 3. , "Zafarnoma". , "Sharq" nashriyoti. T.: 1997 y

QADIMGI TOSHKENT VOHASI

*Egamov Diyorbek Inomjon o'g'li,
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi Toshkent vohasining tarixiy-geografik holati, dastlabki aholi punktlari, madaniy yodgorliklari hamda iqtisodiy-siyosiy rivojlanishi haqida so'z yuritiladi. Ushbu maqola, Toshkentning qadimgi davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini chuqur tahlil etib, uning O'rta Osiyo va dunyo tarixidagi o'rnini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Toshkent vohasi, qadimgi shaharlar, arxeologik yodgorliklar, Zangiota, Qovunchi madaniyati, savdo yo'llari, madaniy aloqalar, qadimgi iqtisodiyot

Toshkent vohasi, Markaziy Osiyoning qadimiy hududlaridan biri bo'lib, o'zining strategik joylashuvi va boy tarixiy merosi bilan diqqatga sazovor. Toshkentning qadimiy davrlari haqida arxeologik va tarixiy manbalar ko'plab ma'lumotlarni taqdim etadi. Toshkent vohasining qadimdan aholisi uchun qulay yashash sharoitlari mavjud bo'lib, bu hududda ilk madaniy markazlar shakllangan. Toshkentning qadimgi tarixini o'rganish, nafaqat Toshkentning o'zining rivojlanishiga, balki butun O'rta Osiyo va uning madaniyati, iqtisodiyoti haqida ham to'liq tasavvurga ega bo'lishga imkon beradi.

Toshkent vohasining tarixiy o'tmishi haqida ko'plab ilmiy izlanishlar mavjud. Bu maqolada qadimgi Toshkent va uning atrofidagi vohalarda yashagan aholi, madaniy yodgorliklar, savdo va iqtisodiy aloqalar, shuningdek, madaniyatlararo ta'sirlar keng yoritiladi.

Toshkent vohasi O'rta Osiyoning markazida joylashgan bo'lib, uning geografik joylashuvi tarixan uning muhim savdo va madaniyat markazi bo'lishiga imkon yaratgan. Vohaning eng muhim xususiyatlaridan biri, u asrlar davomida O'rta Osiyoning turli madaniyatlari va xalqlari o'rtasidagi savdo va madaniy aloqalarining chorrahasi bo'lganidir. Ushbu voha hududi, ayniqsa, Sirdaryo va Amudaryo o'rtasida joylashgan bo'lib, qadimda savdo yo'llarining muhim bo'g'ini bo'lgan. Shuningdek, Toshkent vohasining iqlimi va tabiiy resurslari ham bu yerda qadim zamonlardan aholi yashashiga qulay sharoit yaratgan.

AN'ANALARI	
D.Normurodov BO'STONLIQ TUMANI "SIJAK" MFY OLIB BORILGAN YANGI ARXEOLGIK TADQIQOTLAR XUSUSIDA	93
D.Muhammadiyeva TOSHKENT VILOYATI HAQIDA	96
S.Ergasheva XO'JA AHROR VALIY BUYUK SIYMO	100
R.Do'smurodov CHIRCHIQ SHAHRI TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI	103
Sh.Ashurova SOHIBQIRON AMIR TEMURNING HARBIY FAOLIYATIDAGI TUTGAN O'RNI	107
D.Egamov QADIMGI TOSHKENT VOHASI	111
N.Iskandarova O'ZBEKISTONDA QADIMGI TOSHKENT	113
A.Egamurodov O'ZBEKISTON-FRANSIYA DIPLOMATIK MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT YO'LI (1991-2024)	116
X.Eralov TOSHKENT VOHASINING QADIMGI SHAHARLARI (CHOCH VA BINKAT)	120
Ch.Ergasheva O'ZBEKISTON VA VENGRIYA O'RTASIDAGI IKKI TOMONLAMA HAMKORLIK: ZAMONAVIY BOSQICH VA ISTIQBOLLAR	126
Sh.Erimbetova QADIMGI O'RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI	129
A.Erkinov QADIMGI VA O'RTA ASRLARDA TOSHKENT VOHASI	132
S.Erlapasov XII-XV ASRLARDA RUSDA SIYOSIY IQTISODIY-IJTIMOIOY RIVOJLANISHI	135
S.Eshboboyev EFTALIYLAR DAVRIDA CHOCH	137
Y.Usmonova DAVAN DAVLATI: FARG'ONANING QADIMGI SIYOSIY TUZUMI VA XITOY BILAN MUNOSABATLARI	140
F.Eshimova SHARQIY TURK XOQONLIGI	143
R.Yolg'oshev SHOSHEPA – TOSHKENTNING ENG QADIMGI MANZILGOHI	146
D.Eshmuhamedova CHIRCHIQ SHAHRINING VUJUDGA KELISH TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLI	149
M.Eshquvvatova MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI	154
S.Esonova MUSTAQILLIK YILLARIDA TOSHKENT: IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY TARAQQIYOT TARIXI	157
L.Ochilodiyev AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MANBASHUNOSLIGI VA TARIXNAVISLIGI	160
M.Rixsiboyeva BUYUK TEMURNING TOLERANTLIK SIYOSATI, YHUD ISLOM DINIGA BO'LGAN MUNOSABATI	165
D.Gulyamov SOHIBQIRONGA YO'LBOSHCHI BO'LGAN PIRLAR	168
Z.Xurramova SOHIBQIRON AMIR TEMURNING O'ZBEKISTON TARIXIDA TUTGAN O'RNI	176

TOSHKENT VOHASI TARIXIGA DOIR ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya

Mas'ul muharrir:

G.Muxamadiyev – kimyo fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

R.A.Ikramov - yuridik fanlar doktori, professor

Y.X.Gaffarov - tarix fanari nomzodi, professor

D.B.Axmadjanov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

O.M.Normatov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

Sh.B.Jumayeva - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

O.H.Jaynarov - tarix fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

I.S.Joldasov - pedagogika fanari bo'yicha falafa doktori, dotsent

S.Toshev – katta o'qituvchi

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

© Chirchiq davlat universiteti, 2025.

© «Zebo print» nashriyoti, 2025.